

BO'LAJAK O'QITUVCHI-MURABBIYLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Allanazarova A. B.

Qoraqalpog' Davlat Universiteti

Jahondagi globallashuv jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar o'rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarini ham favqulodda shunga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o'z g'oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarni amalda joriy etish uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydilar, shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadi.

Qisqa davri ichida O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini modernizatsiyalash, unga yaratuvchilik sifatlarini kiritish, innovatsion g'oyalarni joriy qilish borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Yuqori darajadagi bilimga ega, ma'naviy boy, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir.

Shu o'rinda, ta'lim muassasalarida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish, ta'lim jaryonlarini rivojlantirish bilan birgalikda bo'lajak mutaxassislarini, jumladan, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, faqat jismoniy barkamol shaxsgina o'zining intellektual salohiyatini, ma'naviy imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016 yil 8 oktabrdagi farmoyishi [1] asosida tuzilgan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, qator oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik salohiyat hanz past darajada qolmoqda, ta'lim jarayonining o'quv-metodik va axborot ta'minoti zamonaviy talablarga mos emas, moddiy-texnika bazasi tizimli ravishda yangilanishga muhtoj ekanligi aniqlandi. Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoniga ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish borasidagi ishlar talab darajasida olib borilmayotganligi aniqlandi.

Qabul qilingan qarorga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirish va inovatsion tashkil qilishning eng muhim vazifalari etib belgilandi: har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish; oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish; yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish; pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish; oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish; oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqloq g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish; oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash; oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish kabi muammolar borasida fikr yuritildi. Shu o'rinda hozirda oliy ta'lim tizimida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash zamon talabiga aylanib bormoqda. Chunonchi, ularning ta'lim amaliyotida tajriba nuqtai nazaridan olib qaraganda bilim, ko'nikma va malakalari yetarli darajada emasligi, ularni kelgusi innovatsion faoliyatga tayyorlashning modernizatsiyalangan tizimini ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek, bu jarayonda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kab etadi.

"Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi" [3]. Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim – tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli o'qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu

ma'noda mamlakatimizda jismoniy tarbiyalash tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy o'rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish, umumlashtirish asosida jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o'rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovatsion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish - "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi[4].

O'qituvchining innovatsion faoliyati – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat, muayyan vaqt davomida shakllanib, takomillashib boradigan jarayon. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatining asosiy belgilari quyidagilarda o'z ifodasini topadi: ijodiy faoliyat falsafasini jismoniy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg'unlashtirish; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; hamkasabalar bilan xamkorlik; fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik; ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; yangiliklarni jismoniy tarbiya darslariga tatbiq etish, ularni o'z sharoitiga moslashtira olish[2]. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda talabalar faoliyatini yangilashga yo'naltirilgan muayyan shart-sharoitlarni yaratish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari orasida pedagogik jarayonga yangilik kiritishning mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish, ta'lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishning ilmiy asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv malakalarini shakllantirish, ijodiy ishlash borasidagi mahoratini oshirish va o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash talab etiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kelgusidagi faoliyatini tashkil etishga yo'naltiruvchi va muhim qo'llanma bo'la oladigan manba yaratilishini davr taqozo etmoqda. Shu tariqa ularning innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim: bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsiya, innovatsion ta'lim nazariyasi, uning mohiyati, pedagogik faoliyatni loyihalash borasidagi bilimlarni o'zlashtirishiga erishish; talabalarda texnik vositalar va axborot texnologiyalari xizmatidan samarali foydalanish borasidagi amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish; ularda tahsil oluvchilar jamoasi bilan muvaffaqiyatli muloqotni tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuvni shakllantirish; psixologik- pedagogik vaziyatlarni baholay olish va ularga mutanosib xatti - harakatni tashkil etish malakalarini shakllantirish; pedagogik faoliyat mazmuni, ko'lam va samaradorligini oshirish vositalarini ko'rsatish va jismoniy tarbiya o'qituvchisining raqobatbardoshlik sifatleri haqida ma'lumot berish; jismoniy tarbiya fani bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar loyihasini ishlab chiqish, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini baholash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi dasturlarni ishlab chiqish kerak. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari maktab manfaatlarini shaxsiy qiziqishlari bilan muvofiqlashtira olishi lozim.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kelgusidagi innovatsion faoliyatga tayyorlashda uning faoliyatini tashkil etishda muhim qo'llanma bo'la oladigan manbalarni yaratish va mazkur tizimni modernizatsiyalash orqali ushbu faoliyatni to'g'ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ш.М. Мирзиёевнинг 2016 йил 8 октябргаги фармойиши. Lex.uz
2. Мишагин В.Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан.пед.наук. Дисс. Автореф. Саратов, – 2001. – 190 с.
3. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М., Академия, 2000. – 480 с.
4. Эргашев Р.Н. Педагогик техниканинг эстетик хусусиятлари. // Узлуksiz таълим тизимида инновацион технологиялар: муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий материаллари. – Гулистон: 2010. – 43–44-б.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning mexanizmini takomillashtirish borasida asosli fikrlar keltirilgan bo'lib, unda bugungi kunning jismoniy tarbiya o'qituvchisini tayyorlash yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya o'qituvchisi, innovatsiya, modernizatsiya, mexanizm, g'oya, pedagog.

Аннотация. В статье дается представление об улучшении подготовки будущих учителей с использованием инновационной деятельности; содержится информация, которая будет полезна для подготовки современного учителя физического воспитания.

Ключевые слова: учитель физкультуры, инновации, модернизация, механизм, идея, педагог.

Annotation. The article gives an idea of improving the preparation of future teachers using innovation; contains information that will be useful for the preparation of a modern teacher of physical education.

Key words: physical education teacher, innovation, modernization, mechanism, idea, pedagogue.

UO'K: 372.881.161.1